



**Umarova Durdona Akbarjonovna**

*Andijon Ichki Ishlar akademik litseyi Davlat va  
huquq asoslari o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqola gender tengligi masalalariga qaratilgan bo'lib, unda oilaviy munosabatlarda fuqarolarning shaxsiy va mulkiy huquqlari tengligi borasidagi fikrlar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** huquq, oila, munosabat, shaxs, er va xotin.

Olimlarning fikricha, odamlar hayotining birdan-bir to'g'ri yo'li oilaviy hayot ekan. Yolg'iz bo'lib yashash har xil palakatlarga va fojialarga olib kelar ekan. Shuning uchun Amerika Qo'shma Shtatlarida qariyalar yolg'iz uyda qoldirilmasdan ularni bolalari bo'laturib qariyalar uylariga joylashtiriladi. Italiyalik mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, hozirgi paytda har besh ovropolikning biri uyqusizlikdan azob chekarkan. Buning asosiy sababi yolg'izlikdir. Ko'pchilik odamlar oilaviy hayotda yashaydilar, oila-oila bo'lib yashashlikni o'zlariga ma'qul deb hisoblaydilar. Buyuk Britaniyada yolg'iz onalar va yolg'iz qariyalar soni esa yildan yilga ko'paymoqda. Ayni paytda mamlakatning 15 foiz aholisi yolg'izlikda umr kechiradi.

Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Barcha fuqarolar oilaviy munosabatlarda teng huquqlarga egadirlar. Nikoh tuzish chog'ida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei hamda boshqa holatlarga qarab, huquqlarni muayyan tarzda bevosita yoki bilvosita cheklashga, bevosita yoki bilvosita afzalliklar belgilashga hamda oilaviy munosabatlarga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Oilaviy munosabatlarda fuqarolarning huquqlari faqat qonunga asosan va faqat oiladagi boshqa a'zolarining hamda o'zga fuqarolarning axloqi, sha'ni, qadr-qimmati, sog'lig'i, huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida zarur me'yordagina cheklanishi mumkin.

Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi.





## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- demokratizm;
- xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;
- jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;

Shuni ta'kidlash kerakki, o'tish davrining eng muhim va yechimi kechiktirib bo'lmaydigan muammolaridan biri-oiladagi zo'ravonlik muammosidir. Umumiy ko'rinishda oiladagi zo'ravonlikni quyidagicha farqlash mumkin: ayollarga nisbatan zo'ravonlik, bolalarga nisbatan zo'ravonlik va qarindoshlarga nisbatan zo'ravonlik. Oilaviy munosabatlarda teng huquqlilikka erishish - inson huquqlari tizimiga doir ijtimoiy-demokratik institutning tarkib topishi natijasidir. Uning vujudga kelishiga jinslarning davlat tuzilmalarida, hukumat bilan va o'zaro munosabatlarida tegishli normalarni topishning murakkab jarayoni sabab bo'lgan. Tarix shundan dalolat beradiki, teng huquqlilik g'oyasi hamda uni amalga oshirish odob-ahloq, ma'naviy-madaniy va diniy jihatlardan iborat majmuani o'z ichiga oladi. Ayollar deyarli barcha davlatlar aholisining yarmidan ko'pini tashkil qiladi, shuning uchun aholi yarmining huquqlari poymol qilinganda, amalda demokratiyaga asoslangan jamiyat to'g'risida gapirish qiyin. Ayollar ustidan zo'ravonlik muammosi davlatdagi nosog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhit va yangi ijtimoiy munosabatlarni yaratishdagi qoloqlikdan dalolat beradi. Garchi insonga nisbatan barcha turdagi zo'ravonlik va kamsitishlarni bartaraf etish taqozo etilsada, ayollarga nisbatan zo'ravonlik alohida ahamiyatga muhtoj, chunki bu holat butun jamiyatga tegishlidir.

Oilada ayollar ustidan zo'ravonlik jiddiy muammodir. BMTda e'lon qilingan gender tengsizligi to'g'risidagi ma'ruzada ta'kidlanganidek, dunyodagi ayollarning uchdan biri o'z hayotida zo'ravonlikka uchragan. "Dunyodagi ayollarning uchtadan bittasi o'z hayotida zo'ravonlikka uchragan-bu hayratlantiradigan statistika. Gender diskriminatsiyasi-barcha kamsitishlar ichida eng yomoni"-deb ta'kidlagan edi BMT Bosh Sekretarining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'rinbosari Joze Antonio Okampo

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –T.: O'zbekiston, 2000
2. Oila va jamiyat. 1997 yil, 39-son.

